

2024 №6 noyabr

08.00.01
08.00.02
08.00.03
08.00.04
08.00.05
08.00.06
08.00.07
08.00.08
08.00.09
08.00.10
08.00.11
08.00.12
08.00.13
08.00.14
08.00.15
08.00.16
08.00.17

JURNAL

**BANK
BOZOR
BIZNES**

ISSN 3030-3605

GUVOHNOMA №224008

<https://jbmb.uz/>

Bosh muharrir

Pardayev Olim Mamayunusovich

Nashrga tayyorlovchi

Hamidov Mubin Habibjonovich

Tahririyat kengashi a'zolari:

Pulatov Muxiddin Egamberdiyevich	SamISI, rektori professori, i.f.d.
Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich	SamISI, professor, i.f.d.
Sharipov To'lqin Saidaxmedovich	SamISI, O'quv ishlari bo'yicha prorektori, dotsent, i.f.n.
Berdimurodov Azizjon Shukrilloyevich	SamISI, Ma'naviy ishlar bo'yicha prorektori, i.f.f.d.
Zaynalov Jaxongir Rasulovich	SamISI, professor, i.f.d.
Urazov Komil Baxromovich	SamISI, professor, i.f.d.
Bektemirov Abdumalik	SamISI, professor, i.f.d.
Shavqiyev Erkin	SamISI, professor v.b. i.f.d.
Tashnazarov Samiddin Nizamovich	SamISI, professor, i.f.d.
Davronov Shuxrat Zuxurovich	i.f.d. dotsent.
Rustamov Maqsud Suvonqulovich	TDIU professori.i.f.d.
Mamatov Baxodir Safaraliyevich	TDIU professori, i.f.d.
Mattiiev Ilxom Begmatdo'lobovich	SamISI professor, p.f.d.
Niyozov Zuxur Davronovich	SamISI, dotsent. i.f.n.
Shadiyeva Gulnora Mardiyevna	SamISI "Real iqtisodiyot" kafedrasi professori, i.f.d.
Xoliqurov Anvar Nematovich	SamISI professori, i.f.n.
Sayfiddinov Ilxom Fayziddinovich	TDIU dotsent, i.f.n.
Shukurov Izzatillo Xikmatillayevich	SamISI, dotsent. t.f.n.
Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich	SamISI, dotsent.,i.f.f.d.
Ibodov Kamoliddin Mamatqulovich	SamISI, dotsent, i.f.f.d.
Abiyev Jahongir Ne'matovich	SamISI, dotsent. i.f.f.d.
Ernazarov Alisher Ergashevich	ISFT instituti Samarqand kampusi dotsent, p.f.f.d.
Artikov Zokir Sayfiddinovich	SamISI, dotsent, i.f.f.d.
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	SamISI, dotsent, i.f.f.d.
Shirinov Uchqun Abdusalilovich	SamISI, dotsent, i.f.f.d.
Pashaxodjayeva Dildora Djabborxonovna	SamISI, dotsent, i.f.f.d.
Normurodov Umid Normurod o'g'li	SamISI, dotsenti, i.f.f.d.
Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o'g'li	SamISI, dotsenti v.b., i.f.f.d.
Juliboy O'g'li Oybek	SamISI, i.f.f.d.
Tagayev Salim Sobirovich	TDIU Samarqand filiali dotsent. i.f.f.d.
Axrорор Zarif Oripovich	TDIU Samarqand filiali dotsent. i.f.f.d.
Malikova Dilrabo Muminovna	SamISI, i.f.f.d.
Ochilova Xilola Nematovna	SamISI i.f.f.d.
Ruziboyeva Nargiza Xakimovna	SamISI, dotsenti. i.f.f.d.
Kuldashev Sherzod Alimardonovich	SamISI, kata o'qituvchisi. i.f.f.d.
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	SamDU, dotsenti. i.f.f.d.
Beknazarov Farxod Abduvaxidovich	SamISI, "Turizm" kafedrasi o'qituvchisi, i.f.f.d.
Karimov Anvar Aktamovich	SamISI, "Turizm" kafedrasi o'qituvchisi, i.f.f.d.
Rustamov Jamshed Ergashevich	SamISI dotsent v.b., p.f.f.d.

Elektron nashr.

Mas'ul kotib

Bekmurodov Abbas Amiriddinovich

M U N D A R I J A

Narzullayeva Ozoda Qahramon qizi	MAMLAKAT MOLIYA TIZIMIDA MOLIYAVIY NAZORATNING SAMARALI AMALGA OSHIRILISHI NATIJASIDA IQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISH	5-11
Narzullayeva Ozoda Qahramon qizi	MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TUZHISHDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI VA AHAMIYATI	12-20
Жамшед Эргашевич Рустамов	ИННОВАЦИОННЫЕ МОДЕЛИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ИНСТИТУТОВ И ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ОПЫТ ПРАКТИЧЕСКОЙ РЕАЛИЗАЦИИ	21-27
Ashurova Oltin Yuldashevna Kenjayev Jaxongir	O'ZBEKİSTONGA INVESTİTİSYALARNI JALB ETİSHDA DUNYO TAJRIBASI VA UNDAN QO'LLANISH IMKONİYATLARI.	28-32
Narzullayeva Ozoda Qahramon qizi	IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISH SHAROITIDA XALQARO INVESTİTSION MUNOSABATLAR RIVOJLANISHINING AHAMIYATI	32-38
Narzullayeva Ozoda Qahramon qizi	O'ZBEKİSTONDA ISHSIZLIKNI KAMAYTIRISH YO'LLARI VA JAHON TAJRIBASINING O'RNI	38-42
Жамшед Эргашевич Рустамов	ЭКОНОМИЧЕСКАЯ САМОДОСТАТОЧНОСТЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ: СТРАТЕГИИ И МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ С ЭКОНОМИЧЕСКИМИ СИСТЕМАМИ	43-49
Жамшед Эргашевич Рустамов	ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ В ОБРАЗОВАНИИ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЕ СИСТЕМЫ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ КОНЦЕПЦИИ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ	49-55
Narzullayeva Ozoda Qahramon qizi	ISLOM BANKLARI FALSAFASI SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	55-60
Narzullayeva Ozoda Qahramon qizi	MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTINI RIVOJLANTI RISHDA XORIJIY INVESTİTİSYALARNING AHAMIYATI	60-65
Жамшед Эргашевич Рустамов	РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОГО ЭКОСИСТЕМЫ В УНИВЕРСИТЕТАХ: СПОСОБЫ И ИНСТРУМЕНТЫ ПОДДЕРЖКИ ИННОВАЦИЙ И СТАРТАПОВ	66-72
Ashurova Oltin Yuldashevna Yalgashev Xumoyun	HUDUDLARNI İCHİMLİK SUVI BILAN TAMINLASH LOYİHALARI	72-77
Xolmirzayeva Gulrux Akbarovna	TO'G'RIDAN-TO'G'RI JALB ETILGAN XORIJIY INVESTİTİSYALAR – IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI.	77-81
Bekmurodov Abbos Amiriddinovich Xolmirzayeva Gulrux Akbarovna	INNOVATSION MAHSULOTLARGA NARX SHAKLLANTIRISH.	81-85
Bekmurodov Abbos Amiriddinovich Xolmirzayeva Gulrux Akbarovna	REAL IQTISODIYOT KORXONALARNING ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA ULARNI PASAYTIRISH	86-90
Эргашев Худойназар Хабибуллаевич Ганиева Азиза Худойбердиевна	ШАРИАТСКИЙ АУДИТ: ПРИНЦИПЫ И ПРАКТИКА В ИСЛАМСКИХ БАНКАХ УЗБЕКИСТАНА	89-95
Махсудов Ориф Шокирович Мансуров Носиржон	ВЛИЯНИЕ КУРСА НАЦИОНАЛЬНОЙ ВАЛЮТЫ НА ВНЕШНЮЮ ТОРГОВЛЮ И ИНВЕСТИЦИИ: ИССЛЕДОВАНИЕ ВЗАИМОСВЯЗИ МЕЖДУ КУРСОМ	95-99

	УЗБЕКСКОГО СУМА И ЭКОНОМИЧЕСКИМИ ПОКАЗАТЕЛЯМИ	
Abdumannonov Adxamjon Abrorjon o'g'li	"PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR" FANINI MUSTAQIL O`RGANUVCHILAR UCHUN ONLAYN FOYDALANILADIGAN WEB RESURS ISHLAB CHIQISH	99-104
Murodov Alisher Murodovich	Respublikada oliy ta'lif muassasalarining rivojlanish holati va tendentsiyalari tahlili	105-108

MAMLAKAT MOLIYA TIZIMIDA MOLIYAVIY NAZORATNING SAMARALI AMALGA OSHIRILISHI NATIJASIDA IQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISH

**Narzullayeva Ozoda Qahramon qizi
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, assistent**

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat budjeti mablag'laridan samarali foydalanish va moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo'llari, mamlakat moliya tizimida moliyaviy nazoratning ahamiyati va zaruriyati, moliyaviy nazoratning sohalari, moliyaviy nazoratni amalga oshirishda davlat organlarining ahamiyati haqida keng ko'lamda ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: nazarat, moliyaviy nazarat, budget jarayoni, budgetdan moliyalashtirish, moliyaviy nazoratning subyektlari, moliyaviy nazorat ta'moyillari.

Annotation: This article describes in a wide range of ways to effectively use public budget funds and strengthen financial control, the importance and necessity of financial control in the country's financial system, areas of financial control, the importance of public authorities in the implementation of financial control.

Key words: control, financial control, budget process, financing from the budget, subjects of financial control, principles of financial contro

Kirish

Mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash natijasida yildan yilga yuqori natijalar qo'lga kiritilib, barqaror iqtisodiy o'sish mustahkamlanib bormoqda. Hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy siyosat to'la va izchil amalga oshirilishi, iqtisodiyotning muhim ustuvor tarmoqlarining belgilab berilishi hamda ularni rivojlantirish bo'yicha barcha imkoniyatlarning safarbar etilishida moliyaviy nazorat birlamchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev "...iqtisodiyot to'g'risidagi asosiy vazifalar – makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, inflatsiyani jilovlash, tarmoqlarni monopoliyadan chiqarish, davlat tomonidan narxlar belgilanishini tartibga solishni bekor qilish va "yashirin iqtisodiyot"ga barham berishdir. Budget mablag'larining maqsadli va oqilonqa sarflanishi ustidan nazoratni yanada kuchaytirish lozim. Buning uchun "Davlat moliyaviy nazorati to'g'risida" qonun ishlab chiqilishi lozim¹" deya ta'kidlab o'tdilar. Bu esa iqtisodiyotimizdagи korxonalarining yanada barqaror suratlar bilan rivojlanib borishini ta'minlaydi.

¹ Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga murojaatnomasidan. 2020-yil 26-yanvar.

Moliyaviy nazorat ijtimoiy va xususiy takror ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz rivojlanishi, ilmiy texnik taraqqiyotni tezlashuvi, iqtisodiyotning barcha sohalarida sifat ko'rsatkichlarini yaxshilanishini ta'minlashga yo'naltirilgandir. Davlat byudjeti hisobiga mablag' bilan ta'minlanadigan tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, byudjet mablag'laridan samarali foydalanish nazoratini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb masalalardan bir hisoblanadi. Byudjet mablag'laridan oqilona foydalanishga esa samarali nazorat tizimini shakllantirmasdan turib erishib bo'lmaydi. Ma'lumki, byudjet jarayonining asosiy bosqichlaridan biri davlatning moliyaviy nazorati hisoblanadi. Moliyaviy nazorat mamlakatimizda amalga oshirilayotgan nazorat faoliyatining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Moliyayiv nazoratning to'liq mukammal va shaffof tarzda amalga oshirilishi natijasida korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy va huquqiy jihatdan samaradorligini baholashga imkon yaratiladi, chunki u barcha daromadlarni, xarajatlarni, yo'qotishlarni to'playdi, iqtisodiy faoliyat natijalarini umumlashtiradi va tahlil qiladi. Moliyaviy jadvallarga muvofiq siz daromadlilikni aniqlashingiz, korxona faoliyatining samaradorligini tekshirishingiz mumkin. Buning uchun albatta, korxona moliyaviy nazorat tizimini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili

Professorlar A.V.Vahobov va T.S.Malikovlarning fikricha, barcha iqtisodiy subyektlarning moliyaviy faoliyati ustidan qonunchilik va ijroiya hokimiysi organlarining turli darajalari, shuningdek maxsus tashkil etilgan muassasalar tomonidan amalga oshiriladigan nazoratga moliyaviy nazorat deyiladi. Bu nazorat, eng avvalo, pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonida moliyaviy-iqtisodiy qonunchilikka rioya etilishi, moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarining samaradorligini baholash va amalga oshirilgan xarajatlarning maqsadga muvofiqligi ustidan nazoratni o'z ishiga oladi. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, moliyaviy nazorat u yoki bu moliyaviy harakat sodir bo'lishining baholashni o'z ichiga olish bilan cheklanmasdan, balki u o'zining analitik yo'nalishiga ham ega hisoblanadi.

Klassik iqtisodiy nazariya asoschilari U.Petti, A.Smit D.Rikardo tomonidan davlat budjeti daromadlari shakllanishida soliq tizimining o'rni va vazifalari yoritilgan. Ular davlatni iqtisodiyotga minimal ishtiroki tarafдорлари bo'lib, davlatning asosiy vazifalari mudofaa va ijtimoiy masalalar deb belgilaganlar.

Budget daromadlariga professorlar T.S. Malikov va N.X. Haydarovlar quydagicha o'z fikrlarini bildirganlar: "Pul mablag'lari fondlarini shakllantirish

jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarni ifoda etadigan, hokimiyat organlaring turli darajalari ixtiyoriga kelib tushadigan, davlatning funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan davlat markazlashtirilgan moliyaviy resurslarining bir qismi budget daromadlari deyiladi”.

S.O.Shohin, va L.N.Voronina moliyaviy nazoratni tashkilotlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish vakolatiga ega bo'lgan davlat va jamoat organlari tizimi sifatida belgilaydi, Ya'ni, tashkilotlar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash, iqtisodiy va moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini aniqlash va davlat budgetiga daromad olishning o'z vaqtida va to'liqligi haqida keltirib o'tadilar.

Y. M. Voronin, moliyaviy nazoratni faqat qonuniylikni belgilash jarayoni sifatida emas, balki boshqaruv obyektining samaradorligi va natijadorligini baholash jarayoni sifatida ham ko'rishadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishida moliyaviy nazoratning muvoffaqiyatli va samarali o'tkazilishi, uning tashkil etilish darajasi va nazoratning turlari, shakllari va uni o'tkazishning metodlari, budget mablag'laridan maqsadga muvofiq samarali xarajat qilinishini nazorat qilish masalalari tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida statistik, analitik, qiyosiy, kuzatuv, iqtisodiy tahlil va boshqa usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va tarkiblashtirish sharoitida mamlakat iqtisodiyoti va moliya tizimining samarali amal qilishining zaruriy sharti bo'lib moliyaviy nazoratxizmat qiladi. Moliyaviy nazorat ijtimoiy va xususiy takror ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz rivojlanishi, ilmiy texnik taraqqiyotni tezlashuvi, iqtisodiyotning barcha sohalarida sifat ko'rsatkichlarini yaxshilanishini ta'minlashga yo'naltirilgandir.

Hozirgi kunda moliyaviy nazoratning asosiy maqsadi tekshirilayotgan obyektda mavjud bo'lgan haqiqiy holatni obyektiv o'rganish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ijro etishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash yoki oldini olishdan iborat.


Moliyaviy nazorat jamiyat iqtisodiyotidagi iqtisodiy samaradorlikni rag'batlantirish, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, noishlab chiqarish xarajatlarini imkoniyat darajasida iqtisod qilinishi bilan dolzarb ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda moliyaviy nazoratning muhim vazifalari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- Davlat budgeti va davlatning budgetdan tashqari jamg'armalarining shakllanishi va ishlatilishini nazorat qilish;
- Davlat moliyaviy resurslarining maqsadga muvofiq ishlatilishini, davlat va mahalliy mulkdan qonuniy ravishda va oqilona foydalanishni nazorat qilish;
- Xo'jalik subyektlari tomonidan buxgalteriya hisobi va hisobotni to'g'ri yuritilishini nazorat qilish, xo'jalik operatsiyalarining buxgalteriya hujjatlarida to'g'ri aks ettirilishini tekshirish;
- Soliq va soliqqa tortish, valuta, bojxona va bank faoliyatida amaldagi qonunchilikka rioya qilinishini tekshirish.

Bu ro'yxat bilan davlat moliyaviy nazoratining vazifalarini chegaralash mushkuldir. Chunki, moliyaviy qonunchilikning o'zgarishi bilan moliyaviy nazoratning vazifalari ham o'zgaradi va yanada aniqlashtiriladi.

Shuningdek, biz moliyaviy nazoratni amalga oshirar ekanmiz, ularning sohalarini ham keltirib o'tishimiz lozimdir. Moliyaviy nazoratning davlat va nodavlat sohalari nazoratni amalga oshirish metodlarining o'xshashligiga qaramasdan, o'zlarining maqsadlari bo'yicha bir-biridan tubdan farq qiladi. Davlat moliyaviy nazoratining bosh maqsadi davlat xazinasiga resurslarni tushurishni maksimallashtirish va davlat boshqaruv xarajatlarini minimallashtirish bo'lsa, bunga qarama-qarshi ravishda nodavlat moliyaviy nazoratning (ayniqsa, firma ichidagi moliyaviy nazoratning) bosh maqsadi joylashtirilgan kapitaldagи foyda normasini oshirish maqsadida davlat foydasidagi ajratmalar va boshqa xarajatlarni minimallashtirishdan iborat. Bir vaqtning o'zida moliyaviy nazoratning har ikki sohasi amaldagi qonunlarning huquqiy ramkasi bilan cheklab qo'yilgan.



1-rasm. Moliyaviy nazoratning sohalari

Respublikamizda budget ijrosini belgilangan parametrlar doirasida ijobietish, budgetdan mablag' bilan ta'minlashni takomillashtirish hamda mablag'lardan samarali va maqsadli foydalanish, budget intizomini ta'minlash budget tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Budget jarayonlarida, jumladan, budget ijrosini qa'tiy ta'minlashda budgetdan birinchi darajali ustivor ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish, budget mablag'laridan maqsadli, samarali foydalanish borasida olib borilayotgan ishlar bilan bir qatorda yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud. Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni, bozor mexanizmining takomillashtirilishi va islohotlarning tobora chuqurlashib borishi har bir iqtisodiy jarayonni chuqur tahlil qilishni taqozo qilmoqda. Budget jarayonini mavjud qonunchilik asosida, budget ijrosini belgilangan parametrlar doirasida ijob etish, budgetdan mablag' bilan ta'minlashni takomillashtirish hamda mablag'lardan samarali va maqsadli foydalanish, budget intizomini ta'minlash budget tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

1-jadval

2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Konsolidatsiyalashgan budgetining jamlanma parametrlari hamda 2024-2025-yillarga budget mo'ljallari

T/r	Ko'rsatkichlar	2023-yil uchun prognoz	Maqsadli mo'ljallar	
			2024-yil	2025-yil
1	Yalpi ichki mahsulot, mlrd so'm	1 068 044	1 235 398	1 411 965
2	Yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati, foizda	5.3	5.6	6
3	Iste'mol narxlari indeksi, o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan, foizda	9.5	5-6	5
4	Sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati, foizda	5,1 - 6,9	6	7.2
5	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, foizda	3,5	3,7	3,9
6	Xizmatlar ko'rsatishning o'sish sur'ati, foizda	6.7	6.2	6

Ushbu jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, 1-4-5-ko'rsatkichlarga qaraydigan bo'lsak, 0,3 foizli o'sishni ko'rishimiz mumkin. Ammo 3-6-ko'rsatkichlar esa buning aksini ko'rsatib turibdi.

Xulosa

Davlat moliyaviy nazorati tizimini isloh qilishdan maqsad, avvalo, xalqaro talablarga mos keladigan va faoliyatida zamonaviy usullardan keng foydalangan holda moliyaviy xato va kamchiliklarning oldini olish hamda budget mablag'larining samaradorligini baholashga qaratilgan moliyaviy nazorat tuzilmasiga ega bo'lishdir.

Mamlakatimiz moliyaviy nazorat tizmini ochiqligini va shaffofligini ta'minlash hamda uni yanada takomillashtirish uchun quyidagi takliflarni keltirib o'tamiz:

- davlat siyosatiga mos ravishda moliyaviy nazorat tizimini isloh qilib borishni ta'minlash;
- xavf tahlilini doimiy o'tkazish orqali ularning oldini olish, sodir etishga imkoniyat yaratuvchi sabablar vas hart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan moliyaviy nazoratning yangi tizimini yaratish;
- nazorat organi tizimi bilan turli tashkilotlar (tijorat banklari, soliq, bojaxona organlari, tovar xom-ashyo birjalari) o'rtaсидаги axborot almashish tizimini yanada muvofiqlashtirish;
- korrupsiyaviy omillarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha doimiy profilaktika qilishga qaratilgan va chuqr raqamlashgan, ya'ni inson faktorini maksimal darajada cheklagan holda masofaviy moliyaviy nazoratga e'tibor qaratish;

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkunki, yurtimizda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada rivojlantirish, bu borada xalqaro tajribani amaliyotga tatbiq etib, tashkilotlarda aniqlanayotgan moliyaviy xato va kamchiliklarning oldini olish, kamomad va o'zlashtirishlarga yo'l qo'ymaslik orqali budjet mablag'laridan foydalanishda yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vahobov. A.V, Malikov. T.S: Moliya. Darslik. T: "Noshir" Toshkent 2011-y. -711 b.
2. Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasidan. 2020-yil 26-yanvar.
3. Malikov T.S. "Byudjet-soliq siyosati" T.: "Iqtisod-moliya" 2019 -yil.
4. A.K.Ibragimov, I.K.Ochilov I.N.Qo'ziyev, N.Q.Rizayev (2007) "Moliyaviy va boshqaruv hisobi" o'quv qo'llanma.
5. Temirkulov, A. A. (2020). The correct acceptance of the investment decision is a factor of success of implementation of the process. ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85), 689-692.
6. Tulaxodjayeva M.M. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasida moliyaviy nazorat tizimi. O'quv qo'llanma. Toshkent-2011.

MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TUZISHDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI VA AHAMIYATI

**Narzullayeva Ozoda Qahramon qizi
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, assistent**

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi tizimini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida transformatsiyalash hamda bu orqali jahon maydoniga aniq va ishonchli ma'lumotlar bilan kirish, MHXS talablari asosida moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzishning zaruriyati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2020-yil 24- fevraldaggi PQ-4611 qarori mamlakatimizda MHXS ni rivojlantirish uchun asosiy omil bo'lganligi haqida keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, moliyaviy natijalar, milliy standartlar, foyda va zararlar, transformatsiyalash.

Annotation: In this article, the need to transform the accounting system of the Republic of Uzbekistan on the basis of international standards of financial reporting and thereby enter the world arena with accurate and reliable information, the need to prepare a report on financial results based on the requirements of the International Financial Reporting Standards, as well as the President of the Republic of Uzbekistan's "Financial Decision PQ-4611 of February 24, 2020 "On additional measures for the transition to international standards of reporting" is cited as the main factor for the development of MHXS in our country.

Key words: international standards of financial reporting, financial results, national standards, profits and losses, transformation.

Kirish

Butun dunyoda globallashuv va integratsiya jarayonlarining tobora jadallahib borayotganligi - xalqaro miqyosda belgilangan me'yorlar va standartlarga o'tish hamda ulardan foydalanishga bo'lgan talablarning kuchaytirilishiga zarurat tug'dirmoqda. Jahondagi turli sohalarda faoliyat olib borayotgan aksiyadorlik jamiyatlar, transmilliy korporatsiyalar va yirik kompaniyalar hozirda moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlariga (MHXS) muvofiq moliyaviy hisobotlarni ixtiyorilik asosda tuzmoqda. Xususan bizning mamlakatimizda ham bu borada qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu bo'yicha bajariladigan ishlar esa albatta,

xalqaro maydonga barcha uchun tushunarli, aniq va shaffof tarzda tayyorlangan mahsulotlarni taqdim etishda asosiy vositachi bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy hisobotlarini MHXS ga asosan transformatsiyalash jarayonini tashkil etish hamda huquqiy jihatdan mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra, 2021-yil 1-yanvardan boshlab aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi korxonalar - MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarini tayyorlashi hamda bu sohada mutaxasislarni tayyorlash masalalarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, bu orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish² va boshqa masalalar bo'yicha vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, Moliya vazirligi tomonidan 2020-yil 12-oktabrda 92-sonli MHXS hujjatlarini davlat tiliga tarjima qilish va ularni ekspertizadan o'tkazishni tashkil qilish to'g'risida buyrug'iga binoan, 62 ta MHXS hujjatlari davlat tiliga tarjima qilindi.

Shuningdek, hozirda butun dunyoda iqtisodiyotning globallashuvi jarayonida turli mamlakatlar foydalana olishi uchun sifatli, taqqoslanadigan va ishonchli axborotlarni shakllantirish hamda yagona yondashuvni qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu imkoniyatga esa faqat moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) qabul qilish va unga muvofiq holda hisobotlarni tuzish orqaligina erishishimiz mumkin. Shuningdek, ushbu standartlardan foydalanish orqali mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar oqimini yanada ko'paytirishga erishishimiz mumkun.

Bizga ma'lumki, har qanday tashkilotning amalga oshirgan moliyaviy faoliyatining natijasi bu – uning moliyaviy hisobotlari hisoblanadi. Ya'ni, moliyaviy hisobot - ma'lum bir davr mobaynida amalga oshirilgan moliyaviy operatsiyalar haqidagi ma'lumotlar yig'indisi hisoblanadi. Ushbu ma'lumotlardan foydalanuvchilar uchun bunday hisobotlar albatta sodda biznes tilida, barcha uchun tushunarli hamda qaror qabul qilish uchun kerakli bo'lgan barcha ma'lumotlar aniq va shaffof tarzda ko'rsatilishi kerak. Aynan mana shu omillar MHXS dan foydalanish qanchalik darajada zarur ekanligini yana bir bora ko'rsatib bermoqda.

Shuningdek, xalqaro integratsiyalashuv jarayonida MHXS lardan foydalanish - xorijiy mamlakatlar moliyaviy holatini tushungan holda mamlakatimizga xorijiy

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldag'i PQ-4611 "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori.

investitsiyalarni jalg qilish imkonini beradi. Xususan, 2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham mamlakatimizda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalg etish³ choralar belgilab qo’yilgan.

Yuqorida aytigal fikrlardan ko’rinib turibdiki, axborotdan foydalanuvchilarga moliyaviy holat to’g’risidagi ma’lumotlarni shaffof va ishonchli tarzda yetkazib berish - iqtisodiyotimiz rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri bo’lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Hozirgi kunda barcha mamlakatlar jahon maydoniga qadam qo’yishga hamda xorijiy investitsiyalarni o’z mamlakatlariga jalg qilishga xarakat qilmoqda. Shu munosabat bilan hozirgi kunda 150 dan ortiq mamlakatlar MHXS dan o’z moliyaviy holati haqida aniqroq va barcha uchun tushunarli bo’lgan ma’lumot taqdim etish uchun foydalanishmoqda.

Xususan, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent S.Tashnazarov doktorlik disertasiyasida hisob va hisobotni xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish, shu asosda moliyaviy hisobotning dunyo miqyosida garmonizatsiyasiga erishish, ilg’or tajribalardan milliy darajada samarali foydalanish - barcha mamlakatlar uchun eng dolzarb masala⁴ ekanligi haqida o’rganish va tahlillar olib borgan.

Iqtisodchi olimlar A.A.Karimov, M.Rahimov, I.Qo’ziyevlar MHXS ga o’tishning istiqbollari⁵, A.Z.Avloqulov moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobotlarni yuritish⁶ to’g’risida izlanishlar olib borishgan.

Iqtisodchilar Turayev va Boltayevalar pul oqimlari to’g’risidagi hisobotni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida bevosita usuldan foydalangan holda tuzish tartibi va bu orqali investorlarning moliyaviy hisobotlarga ishonchlining oshishiga xizmat qilishiga erishilishi⁷ haqida tadqiqotlarni amalga oshirganlar.

³ 2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi. PF-60 28.01.2022.

⁴ S.N.Tashnazarov. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) avtoreferati. T.: 2019. 74-bet.

⁵ A. Karimov, I. Qo’ziyev, M. Rahimov. Molivaviy hisobotning xalqaro standartlariga o’tish: muammo va istiqbol “Xalqaro ilmiy moliya va hisob” jurnali. № 4, avgust, 2020 yil 3-bet.

⁶ Avloqulov A.Z. Molivaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy natijalar to’g’risidagi axborotlarni aks ettirish xususiyatlari. Raqamli iqtisodiyotga o’tish davrida buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. T.:2020. 243-bet.

⁷ Turayev A.N. va Boltayeva D.J. Pul oqimlari to’g’risidagi hisobotni xalqaro standartlar asosida tuzishni takomillashtirish. “Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o’tish va xalqaro tajribani o’zbekistonda qo’llashning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy - amaliy anjuman maqolalar to’plami. T.:2022. 373-bet.

Iqtisodchi Xudayberdiyeva N.M. O'zbekiston Respublikasida budget hisobi va hisoboti tizimini rivojlantirishning zarurligi, davlat sektorida hisob va hisobot tizimini rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasi, budget hisobi va hisoboti tizimini takomillashtirishda xalqaro standartlar talablaridan foydalanish, mamlakatimizda xalqaro standartlarni moslashtirish asosida budget hisobi va hisoboti tizimini takomillashtirish⁸borasida o'rganishlar olib borgan.

Yana bir iqtisodchi Axmadoxunova A.X. global iqtisodiyotning global buxgalteriya siyosatini qabul qilish va uyg'unlashtirish holati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o'tish va mamlakatning buxgalteriya siyosatida yangi sahifani ochish maqsadga muvofiqligining ustuvor ahamiyat kasb etishi⁹ haqida izlanishlar olib borgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanishning ahamiyati va zarurligi bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari o'rganildi va tahlil qilindi. Tahlil jarayonida kuzatish, tahlil qilish usullaridan hamda rasm va jadvallardan foydalanildi. Shuningdek, bu sohada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va bunda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar haqida taklif va xulosalar keltirib o'tilgan.


Tahlil va natijalar muhokamasi

Iqtisodiyotimizni yanada modernizatsiyalash jarayonida xalqaro sarmoyadorlar va kreditorlar, xalqaro moliya institutlari, xalqaro menejerlar va biznesda o'z faoliyatini amalga oshirayotgan vakillarni ishonchli va tezkor moliyaviy axborotlar bilan ta'minlash eng dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Asosan hozirgi kunda moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar orasida investorlar muhim rol o'yamoqda. Ularning asosiy maqsadi yanada ko'proq dividend va kapitallarni ko'paytirish orqali daromad olish hisoblanadi. Shu sababdan ham ular nafaqat mavjud vaziyat haqida ma'lumotni, balki tashkilotning kelajakda yuzaga kelishi mumkun bo'lgan imkoniyatlari va risklari haqida ham qiziqishadi. Moliyaviy hisobotning maqsadi ham amaliy jihatdan tashkilot uchun samarali bo'lgan va keng ko'lamli foydalanuvchilar uchun foydali bo'lgan moliyaviy holat, tashkilot faoliyatining natijalari to'g'risida ma'lumot berish hisoblanadi.

⁸ Xudayberdiyeva N.M. Xalqaro standartlarni moslashtirish asosida budget hisobi va hisoboti tizimini takomillashtirish chora tadbirlari. "Tafakkur manzili" jurnali. 2022. 219-bet.

⁹ Axmadoxunova A.X. O'zbekiston iqtisodiyotni rivojlantirishda xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o'tishning roli va ahamiyati. "Scientific progress" jurnali. № 2, 2021 257-bet.

Shu munosabat bilan ham MHXS larini buxgalteriya hisobi milliy standartlariga transformatsiya qilish va buning asosida bu hisobotdan foydalanuvchilarga axborotdan foydalanishda qulayliklar yaratish maqsadida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlari talablariga muvofiq buxgalteriya hisobotlari shaklini o'zgartirishning umumiy ma'nosи O'zbeiston Respublikasi qoidalariga muvofiq tuzilgan hisobotlar bilan ularni MHXSga muvofiq tuzilgan hisobotlar deb e'tirof etish imkonini beruvchi tuzatishlarni amalga oshirishdan iborat. Hozirgi vaqtda buxgalteriya hisobotlari shaklini o'zgartirishning nazariy asosi ishlab chiqilgan bo'lib, u shuni nazarda tutadiki, tarsnformatsiya amalda kompaniyalar guruhining konsolidatsiyalashtirilgan moliyaviy hisobotlarini tuzishdagi birinchi bosqich hisoblanadi¹⁰. Buni quyidagi rasm orqali tasvirlashimiz mumkun (1-rasm):



1-rasm. Hisobotlar shaklini o'zgartirish bosqichining konsolidatsiyalashtirilgan moliyaviy hisobotlarini tuzish jarayonidagi o'rni. (Ergasheva, 2019)

Hozirgi kunda deyarli barcha mamlakatlar MHXS lardan foydalanib kelmoqda. Bu standartlar turli xil milliy hisob tizimiga ega bo'lgan mamlakatlarda qo'llanilishi sababli ular tarkibiy tuzilishi bo'yicha ham barcha uchun bir xil bo'lishi kerak. Xozirgi kunda xalqaro standartlar tarkibi bo'yicha uch qismdan iborat. Birinchi qism – kirish, ikkinchi qism – hisob obyektining tavsifi, uchinchi qism – buxgalteriya hisobi standarti (xulosasi) deb ataladi.

¹⁰ Sh.T. Ergasheva, A.K. Ibragimov, N.K. Rizayev, I.R. Ibragimova. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. T.:2019. 210-bet.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkilotlar moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot, jami daromadlar to'g'risidagi hisobot, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, xususiy kapital to'g'risidagi hisobotlarni tuzishi talab etiladi. Ulardan moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot quyidagi ko'rinishda tuzilishi lozim¹¹ (1-jadval):

1-jadval

Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot (ming so'mlarida)

	Ilova	31-dekabr 20X3 yil	31-dekabr 20X2 yil	31-dekabr 20X1 yil
AKTIVLAR				
Joriy aktivlar				
Pul mablag'lari va ekvivalentlari	5			
Qisqa muddatli investitsiyalar	6			
Olinadigan va boshqa hisobvaraqlar	7			
Berilgan bo'naklar	8			
Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha bo'naklar	9			
Tovar moddiy zaxiralar	10			
Jami joriy aktivlar				
Uzoq muddatli aktivlar				
Asosiy vositalar	11			
Gudvill				
Nomoddiy aktivlar				
Jami uzoq muddatli aktivlar				
JAMI AKTIVLAR				
MAJBURIYATLAR				
Qisqa muddatli majburiyatlar				
Mol yetkazib beruvchilarga qarzlar	14			
Moliyaviy ijara bo'yicha majburiyatlar	15			
Soliq bo'yicha qarzdorlik	16			
Budgetdan tashqari to'lovlar	17			
Olingan bo'naklar	18			
Xodimlar bilan hisob-kitoblar	19			
Jami qisqa muddatli majburiyatlar				
Uzoq muddatli majburiyatlar				

¹¹ Norbekov D.E., To'rayev A.N., Rahmonov Sh.Sh. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. T.:2019. 295-bet.

Moliyaviy ijara bo'yicha majburiyatlar	15			
Jami uzoq muddatli majburiyatlar				
KAPITAL				
Aksionerlik kapitali	20			
Qo'shilgan va zaxira kapitali	21			
Taqsimlanmagan foyda	22			
Jami capital				
JAMI PASSIV				

Boshqaruv raisi

Bosh hisobchi

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinish turibdiki, aktivlar va majburiyatlar joriy va uzoq muddatliga bo'lib ko'rsatilgan. Lekin, MHXS kompaniyalardan aktivlarni joriy va uzoq muddatliga bo'lishni talab qilmaydi. Shunday bo'lsada, kompaniyalar muomalalarning xarakteriga qarab aktivlar va majburiyatlarni joriy va uzoq muddatlarga bo'lib ko'rsatishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Albatta, hozirgi kunda mamlakatimizda moliyaviy hisobotlarni tuzishda xalqaro va milliy standartlar qoidalarida bir qancha farqlar mavjud. Bu esa o'z navbatida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzishda bir necha muammolarni yuzaga keltirishi mumkun. Bu muammolarni bartaraf etishda fikrimizcha, moliyaviy hisobotlarni tuzish jarayonida uzluksizlik, hisoblash, taqqoslanuvchanlik va o'z vaqtidalik kabi buxgalteriya hisobi prinsiplariga e'tibor qaratish va ularni o'z o'rnida to'g'ri qo'llash zarur.

Xalqaro standartlar talablariga javob beradigan moliyaviy hisobot taqdim etish uchun tashkilot schetlar rejasi bo'yicha buxgalteriya hisoboti tuzatish kiritilgan barcha ma'lumotlarni MHXS bo'yicha taklif etilayotgan buxgalteriya hisobi schetlariga o'tkazish lozim. Bu qayta tasniflash quyidagi vazifalarni hal etishga imkon beradi: MHXSga muvofiq yuritiladigan buxgalteriya hisobi schetlari bo'yicha boshlang'ich saldoni hisobga olgan holda boshqa moliyaviy hisobot shakllantirish va buxgalteriya balansi tuzish, shuningdek, xalqaro standartlar talablariga muvofiq barcha zaruriy tahliliy axborotlar olish¹².

Xulosa

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari - buxgalterlik standartlarini ishlab chiquvchi organlari hali tuzilmagan yoki standartlarni ishlab chiqishga resurslari

¹² Muzrapova Sh.S. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibi. "Tafakkur manzili" jurnali. Vol.16, no 3. 2022, 225-bet.

yeterli bo'limgan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham juda foydalidir. Chunki moliyaviy hisobotlarni tashqi foydalanuvchilarga taqdim etishda moliyaviy hisobotlarni ishlab chiqish o'ziga yarasha xarajatlarni talab qiladi. Barcha uchun tushunarli va umumiy biznes tiliga ega bo'lgan xalqaro moliyaviy hisobot standartlaridan foydalanish esa albatta bu kabi muammolarning oldini olishga imkon beradi.

Mamlakatimizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy qilish bo'yicha to`plangan nazariy va amaliy ko`nikmalar hamda tahliliy ma'lumotlardan foydalanib quyidagi takliflarni keltirishimiz mumkun:

avvalo, moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlaridan foydalanish orqali moliyaviy tahlil ko`rsatkichlarini ma'lumotdan tashqi foydalanuvchilarga xususan, investorlarga yagona umumlashgan hisobotlarga ilova tarzida kiritib borish zarur. Bu orqali faoliyat rentabelligini aniq ko`ra olish imkoniyati yanada ortadi;

ta'lim va amaliyot integratsiyasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Negaki ushbu standartlar barcha mamlakatlarda asta sekinlik bilan joriy etilayotganligi sababli ushbu soha mutaxasislari sifatida talabalarni ayta olamiz. Ya'ni, bu kadrlarni MHXS bo'yicha yuqori bilim va malakaga ega bo'lib shakllanishi uchun tashkilotlarda stajirovkalarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir;

MHXS lardan foydalanish uchun faol fond va valuta bozori ham rivojlangan bo'lishi lozim. Aholida ushbu soha bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirish zarur. Bu orqali xorijiy investorlar sarmoya kiritishi uchun ishtiyoq paydo bo'lishiga erishishimiz mumkun.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz globallashuv sharoitida xalqaro hisob siyosatini yuritish va standartlarini qabul qilish bugungi kun talabi hisoblanadi. Zero hisob siyosati va shaffofligi har qanday axborot foydalanuvchiga tushunarli va ma'lumot taqdim etiluvchiga ya'ni potensial investorga malakali, moliyaviy qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi. Bu orqali biz mamlakatimizga xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirishga erishishimiz mumkun bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldag'i PQ-4611 "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori.
2. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi. PF-60 28.01.2022.

3. S.N.Tashnazarov. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) avtoreferati. T.: 2019. 74-bet.

4. A. Karimov, I. Qo‘ziyev, M. Rahimov. Molivaviy hisobotning xalqaro standartlariga o’tish: muammo va istiqbol “Xalqaro ilmiy moliya va hisob” jurnali. № 4, avgust, 2020 yil 3-bet.

5. Avloqulov A.Z. Molivaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy natijalar to’g’risidagi axborotlarni aks ettirish xususiyatlari. Raqamli iqtisodiyotga o’tish davrida buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. T.:2020. 243-bet.

6. Turayev A.N. va Boltayeva D.J. Pul oqimlari to’g’risidagi hisobotni xalqaro standartlar asosida tuzishni takomillashtirish. “Xalqaro molivaviy hisobot standartlariga o’tish va xalqaro tajribani o’zbekistonda qo’llashning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy - amaliy anjuman maqolalar to’plami. T.:2022. 373-bet.

7. Xudayberdiyeva N.M. Xalqaro standartlarni moslashtirish asosida budjet hisobi va hisoboti tizimini takomillashtirish chora tadbirlari. “Tafakkur manzili” jurnali. 2022. 219-bet.

8. Axmadoxunova A.X. O’zbekiston iqtisodiyotni rivojlantirishda xalqaro molivaviy hisobot standartlariga o’tishning roli va ahamiyati. “Scientific progress” jurnali. № 2, 2021 257-bet.

9. Sh.T. Ergasheva, A.K. Ibragimov, N.K. Rizayev, I.R. Ibragimova. Molivaviy hisobotning xalqaro standartlari. O’quv qo’llanma. T.:2019. 210-bet.

10. Norbekov D.E., To’rayev A.N., Rahmonov Sh.Sh. Molivaviy hisobotning xalqaro standartlari. O’quv qo’llanma. T.:2019. 295-bet.

11. Muzrapova Sh.S. Molivaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida molivaviy hisobotlarni tuzish tartibi. “Tafakkur manzili” jurnali. Vol.16, no 3. 2022, 225-bet.

ИННОВАЦИОННЫЕ МОДЕЛИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ИНСТИТУТОВ И ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ОПЫТ ПРАКТИЧЕСКОЙ РЕАЛИЗАЦИИ

Рустамов Дж.Э. Самаркандинского института экономики и сервиса,
rustamovjam7@gmail.com

Аннотация: данная работа исследует инновационные модели взаимодействия между образовательными институтами и экономическими системами, сосредотачиваясь на их теоретических основах и опыте практической реализации. В работе анализируются существующие теоретические модели такого взаимодействия, выделяются ключевые аспекты, такие как стратегическое партнерство, академическая мобильность и инновационные центры, и предлагается интегрированная концепция, способствующая эффективному сотрудничеству между образовательными и экономическими сферами. Работа выводит, что успешное взаимодействие образовательных институтов и экономических систем основано на инновационных подходах, адаптированных к современным требованиям и вызовам.

Ключевые слова: инновации, образовательные институты, экономические системы, стратегическое партнерство, академическая мобильность, инновационные центры, концепция, сотрудничество, эффективность.

Annotation: this paper explores innovative models of interaction between educational institutions and economic systems, focusing on their theoretical foundations and practical implementation experience. The paper analyzes existing theoretical models of such interaction, highlights key aspects such as strategic partnerships, academic mobility and innovation centers, and proposes an integrated concept that promotes effective cooperation between educational and economic spheres. The paper concludes that successful interaction between educational institutions and economic systems is based on innovative approaches adapted to modern requirements and challenges.

Key words: innovation, educational institutions, economic systems, strategic partnership, academic mobility, innovation centers, concept, cooperation, efficiency.

1. Постановка проблемы:

Введение:

Современное общество стремится к устойчивому развитию и конкурентоспособности, что требует эффективного взаимодействия между образовательными институтами и экономическими системами. Особенно важным становится вопрос использования инновационных моделей для улучшения этого взаимодействия. Данный аспект приобретает значимость в свете современных вызовов и требований, с которыми сталкивается как образовательная, так и экономическая сфера.

Актуальность проблемы:

В условиях стремительных изменений в технологической среде и экономической структуре, инновации становятся ключевым фактором, определяющим конкурентоспособность и устойчивость общества. Образовательные институты играют важную роль в подготовке кадров и формировании компетенций, необходимых для успешного включения в современный рынок труда. Однако, несмотря на важность этого взаимодействия, многие страны и организации сталкиваются с вызовами в области эффективности и адаптивности существующих моделей сотрудничества.

Основные проблемы:

1. Неэффективное внедрение инноваций: Отсутствие механизмов, способствующих успешному внедрению инноваций из образовательной сферы в экономику, и наоборот, создает препятствия для переноса знаний и технологий.

2. Неадекватность образовательных программ: Нередко образовательные программы не соответствуют современным требованиям рынка, что ведет к недостаточной подготовке специалистов и, как следствие, деградации экономической системы.

3. Недостаточная взаимодействие с предприятиями: Отсутствие эффективных механизмов сотрудничества образовательных институтов с предприятиями и компаниями замедляет процесс адаптации учебных программ к реальным потребностям рынка.

Цель исследования:

Целью данного исследования является разработка инновационных моделей взаимодействия между образовательными институтами и экономическими системами, которые бы обеспечивали эффективное использование знаний,

технологий и кадров для поддержки устойчивого развития и конкурентоспособности.

Ожидаемые результаты:

1. Выявление оптимальных механизмов внедрения инноваций из сферы образования в экономику и наоборот.

2. Разработка рекомендаций по модернизации образовательных программ с учетом требований современного рынка труда.

3. Предложение эффективных методов сотрудничества между образовательными институтами и предприятиями для обеспечения актуальности учебных программ.

Исследование в данной области предоставит практические рекомендации для разработки политики в области образования и экономики, способствующей устойчивому развитию и повышению конкурентоспособности в современном мире.

2. Анализ предыдущих исследований и публикаций:

В современной литературе по области образования и экономики обнаруживается широкий спектр исследований, посвященных взаимодействию образовательных институтов и экономических систем. Обзор существующих теоретических моделей взаимодействия позволяет выделить несколько ключевых аспектов:

1. Модель инновационного кластера:

Исследования в этой области фокусируются на формировании инновационных кластеров, объединяющих образовательные институты, научные центры и предприятия с целью совместного развития и коммерциализации технологий. Эти модели стремятся создать благоприятную среду для обмена знаний и опыта, стимулируя инновационную активность и экономический рост.

2. Модель структурного взаимодействия:

Исследования в этой области анализируют структуру взаимодействия между образовательными институтами и экономическими системами, выявляя ключевые элементы и факторы, влияющие на эффективность этого взаимодействия. В рамках этой модели рассматриваются такие аспекты, как стратегическое партнерство, совместные исследовательские проекты и обмен кадрами.

3. Модель цепочки инноваций:

Исследования в этой области сосредотачиваются на анализе цепочки инноваций от образовательных институтов к экономическим системам и обратно. Эта модель исследует различные этапы и механизмы передачи знаний и технологий, а также роли, которые играют образовательные институты, предприятия и государственные организации в этом процессе.

4. Модель инновационной экосистемы:

Эта модель рассматривает взаимодействие образовательных институтов и экономических систем в контексте формирования инновационной экосистемы. В рамках этой модели исследуются различные уровни взаимодействия, от местного до международного, и выявляются факторы, способствующие развитию инновационных экосистем.

Несмотря на значительные исследования в этой области, наблюдаются некоторые пробелы и вызовы, такие как необходимость более глубокого анализа практической реализации теоретических моделей, а также разработка инновационных методов и инструментов для улучшения взаимодействия образовательных институтов и экономических систем. Дальнейшие исследования могут сосредоточиться на анализе этих проблем и разработке рекомендаций для их решения.

3. Цель исследования:

Основная цель данного исследования заключается в разработке концепции эффективного взаимодействия образовательных институтов и экономических систем, основанной на инновационных моделях, с учетом как теоретических основ, так и опыта их практической реализации.

Пояснение:

Целью исследования является не только теоретическое изучение существующих моделей взаимодействия, но и создание конкретного практического плана, способствующего эффективному сотрудничеству между образовательными институтами и экономическими системами. Разработка концепции будет основана на анализе опыта успешных практик в данной области, а также учете современных требований и вызовов, стоящих перед образовательной и экономической сферами.

Ожидаемые результаты:

1. Формулирование новаторской концепции взаимодействия образовательных институтов и экономических систем, учитывающей современные вызовы и требования.

2. Разработка практических рекомендаций и стратегий для успешной реализации предложенной концепции.

